

100011, Toshkent shahri, Abay ko'chasi, 6-uy, Tel/Faks: 244-04-85, E-mail: davexpertiza@exat.uz, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Direktor: Inoyatov Mirabbos Mirkomilovich

Sana: 04-03-2025 yil



YIG'MA EKSPERT XULOSASI

232828 - SONLI

Obyekt nomi: "Toshkent shahri, Sergeli tumani, Yangi Bunyodobod MFY, Sergeli 6 mavzesi, 34 g-uy O'z yer uchastkasida, yuridik xujjatiga ega qismida, «Yer osti avtoturargohi, savdo-maishiy xizmat ko'rsatish bo'lgan ko'p kvartirali turar joy» binolari qurish" ishchi loyihasi	
Buyurtmachi:	«NEW REAL EXCLUSIVE» MChJ
Bosh loyihachi:	"MAHKAM BUILDING" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	«NEW REAL EXCLUSIVE» MChJ
Qurilish turi:	Yangi qurilish
Murojaat raqami:	050847

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. Toshkent shahar Sirg'ali tumani qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limi tomonidan 2024-yil 28-iyunda berilgan 129224292-sonli ruxsatnomasi.

1.2. Toshkent shahar qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi tomonidan 2024-yil 24-iyulda berilgan 1726-1726283-192475-sonli Arxitektura rejalashtirish topshirig'i.

1.3. Belgilangan tartibda kelishilgan va 2024-yil buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan loyihalash topshirig'i.

1.4. «GEO DEVELOPMENT ENGINEERING» MChJ tomonidan 2024-yilda bajarilgan qurilish maydonchasining muhandislik-geologik sharoitlari to'g'risidagi xulosa.

1.5. "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ tomonidan 2024-yil 19-noyabrda berilgan 05-2715-sonli texnik sharti.

1.6. "Toshkent shahar suv ta'minoti" AJ tomonidan 2024-yil 20-sentyabrda berilgan 270/4-4311-sonli texnik sharti.

1.7. "Hududgaz Poytaxt" GTF tomonidan 2019-yil 25-noyabrda berilgan 50486-T-sonli texnik sharti va 2024-yil 8-noyabrdagi 41-02-11-1422/8652-sonli xati.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Loyiha tarkibiy bayoniga ko'ra ishchi loyihaning elektron yo'nalishda taqdim qilingan loyiha hujjatlari.

- tushuntirish xati;

- bosh reja (GP);
- arxitektura yechimlari (AR);
- konstruktiv yechimlar (KJ);
- elektr ta'minoti (EO);
- ichimlik suvi va oqava suv tarmog'i (VK);
- isitish va shamollatish tizimi (OV);
- yong'in signalizatsiyasi (PS);
- konstruktiv hisobot;
- bino energetik pasporti;
- bino teplotexnik hisobi.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

Bino						
Turi	Nomi	Qavati	Qurilish maydoni	Umumiy maydoni	Xajmi	Xonadonlar soni
Ko'p xonadonli turar joy binosi	A-BLOK	12	961.2	9693.3	26209.19	110
Ko'p xonadonli turar joy binosi	B-BLOK	12	1213.7	9298.4	36276.0	110
Jami:			2174	18991	62485	220

3.1. Qurilish maydonchasining ma'lumotlari.

Normativ shamol bosimi - $W_0 = 0,38$ kPa.

Normativ qor qatlami vazni - $S_n = 0,50$ kPa.

Tumanning zilzilabardoshligi - 8 ball.

Tuproq - lyossimon tuproq, qum-tosh aralashmasi.

Tuproqning seysmik toifasi - ikkinchi.

Yer osti suvlari yer sathidan 3.8-3.9 m chuqurlikda joylashgan.

Tuproqning muzlash chuqurligi - 0,7 m.

3.2. Bosh reja.

Qurilish maydoni "Toshkent shahri, Sergeli tumani, Yangi Bunyodobod MFY, Sergeli 6 mavzesi, 34 g-uy manzilida joylashgan bo'lib, hududda quyidagilar ko'zda tutilgan:.

- turar-joy binosi. A-blok;
- turar-joy binosi. B-blok;
- bolalar maydonchasi;
- ochiq avtoturargoh;
- dam olish hududi;
- transformator nim stansiyasi.

Bosh reja texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari

Umumiy maydoni - 2500.0 m^2

Qurilish maydoni - 1532.82 m^2

Qoplamalar maydoni - 339.28 m^2

Ko'kalamzor maydoni - 627.0 m^2

3.3. Arxitektura - rejalashtirish yechimlari.

A-blok - 12 qavatli, yerto'lali, burchak shaklida bo'lib, o'lchamlari 28.8x28.8m. Yerto'la balandligi 4.2m, birinchi qavat baladligi 3.9m, yuqori qavatlar balandligi 3.0m (poldan shiftgacha).

Bino qavatlarida quyidagilar joylashgan:

Yerto'la qismida - zinapoya maydoni, avtoturargoh, texnik xona va h.k.

Birinchi qavatda – savdo va maishiy-xizmat ko'rsatish xonalari, zinapoya maydoni, lift maydoni va h.k.

Yuqori qavatlarda - xonadonlar joylashgan.

Turar-joy binosida umumiy – 110 ta xonadon joylashgan.

Binoning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari

Qurilish maydoni - 961.2 m²
Umumiy maydoni - 9693.3 m²
Qurilish hajmi - 26209.19 m³.

B-blok – 12 qavatli, yerto'lali, to'rtburchak shaklida bo'lib, o'lchamlari 18.0x36.8m. Yerto'la balandligi 4.2m, birinchi qavat baladligi 3.9m, yuqori qavatlar balandligi 3.0m (poldan shiftgacha).

Bino qavatlarida quyidagilar joylashgan:

Yerto'la qismida – zinapoya maydoni, avtoturargoh, texnik xona va h.k.

Birinchi qavatda – savdo va maishiy-xizmat ko'rsatish xonalari, zinapoya maydoni, lift maydoni va h.k.

Yuqori qavatlarda - xonadonlar joylashgan.

Turar-joy binosida umumiy – 110 ta xonadon joylashgan.

Binoning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari

Qurilish maydoni - 1213.7 m²
Umumiy maydoni - 9298.4 m²
Qurilish hajmi - 36276.0m³.

Binoni tashqi pardozlash:

Tashqi devorlar – pardozlovchi g'isht.

Poypesh – keramogranit plita.

Xonadonlarni ichki pardozlash:

Ichki devorlar – suvoq, suv emulsiyasi bilan bo'yalgan, gulqog'oz, keramik plita bilan qoplangan.

Shift – gipsokarton, suv emulsiyasi bilan bo'yalgan.

Eshiklar – metall, MDF, alyumin profil.

Oyna – PVX profil.

Pol – beton.

3.4. Konstruktiv yechimlari.

Binolarning konstruktiv yechimi – qattqlik diafragmali monolitik temirbeton karkas.

Poydevor osti – qalinligi 1000mm bo'lgan toza tuproqdan yostiq.

Poydevori – qalinlikdagi 1200 mm bo'lgan monolitli temirbeton plita.

Yerto'la tashqi devorlari – qalinligi 250mm bo'lgan monolit temirbeton.

Yuqori qavatlar tashqi devorlari - 250mm qalinlikdagi gazoblok, 50 mm qalinlikdagi jun-mineral qoplama va pardozlovchi g'isht.

Ichki devorlar – qalinligi 250mm va 120mm bo'lgan gazoblok.

Orayopmasi – 160mm, 250mm qalinlikdagi monolit temirbeton.

Lift shaxtasi - monolit temirbeton.

Zinapoya – monolit temirbeton.

Tom qismi – yog'och konstruksiyalar bo'ylab profnastil.

3.5. Yong'in xavfsizligi.

Yong'iniga qarshiligi – II toifa.

Funksional yong'in xavf turi – F1.3.

Konstruktiv yong'in xavf turi – S1.

3.6. Energiya samaradorlik.

Ishchi loyihada ShNK 1.03.01-16 yo'riqnomaning 5-chi ilovasiga asosan energiya tejamlorlik ishlari ko'rsatilgan.

Devorlar tashqi tomondan 50 mm qalinlikdagi jun-mineral qoplama va pardozlovchi g'isht bilan qoplangan.

Bundan tashqari, binolar tom qismida har birining quvvati 540 Vt bo'lgan umumiy 36 dona quyosh panellar o'rnatish ko'zda tutilgan.

3.7. Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun qulaylik yaratish.

Ishchi loyihada ShNQ 2.07.02-24 «Qurilish ob'ektlarini nogironligi bo'lgan va hayot faoliyati cheklangan shaxslar hamda keksalar ehtiyojini inobatga olgan holda loyihalashtirish» shaharsozlik normalari va qoidalariga asosan shart-sharoitlar ko'zda tutilgan.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

Bino barcha muhandislik tizimlari bilan jihozlangan: isitish, shamollatish, elektr ta'minoti, aloqa va signalizatsiya, suv ta'minoti va kanalizatsiya, xavfsizlik va yong'in signalizatsiyasi va boshqa tizimlar (Arxitektura rejalashtirish topshirig'i va loyihalashtirish topshirig'iga asosan).

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

Ishchi loyiha quyidagi tashkilotlar tomonidan ko'rib chiqilgan va kelishilgan:

- Toshkent shahar qurilish bosh boshqarmasi (2024-yil 20-dekabrdagi 161372566-sonli xulosa).

- O'zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi davlat ekologik ekspertizasi markazi, Toshkent shahar filiali (2024-yil 16-oktyabrdagi 01-02/14-2385-sonli ekologik ekspertiza xulosasi).

6. Ekspertiza natijalari.

6.1. Ishchi loyiha ekspertiza ko'rigiga buyurtmachining arxitektura va rejalashtirish, konstruktiv yechimlari izohlarsiz taqdim etilgan.

6.2. Ekspertiza jarayonida mahalliy (lokal) ekspert xulosalarining izohlariga muvofiq ishchi loyihasiga asosiy tuzatishlar va qo'shimchalar kiritildi.

6.3. Buyurtmachiga loyihaviy hujjatlarni tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

Bundan tashqari, buyurtmachi tashqi muhandislik tarmoqlariga ulanish uchun taqdim qilingan texnik shartlar asosida tashqi muhandislik tarmoqlari loyihalarini ishlab chiqishi va ekspertiza ko'rigiga taqdim qilishi lozim.

6.4. Buyurtmachi va loyiha tashkilotiga o'rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda loyiha hujjatlarini o'zgartirish talabi qo'yilgan. Agar ushbu talab bajarilmasa va loyiha hujjatlari buyurtmachiga to'liq tuzatishlarsiz berilsa, ushbu ekspertiza xulosasi haqiqiy emas deb hisoblanadi.

6.5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 321-son qarori 3-ilovasiga muvofiq shaharsozlik hujjatini ishlab chiqaruvchi tashkilot tomonidan qurilish ishlari butun davri davomida "Mualliflik nazorati"ni amalga oshirilishinni ta'minlaydi.

6.6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi 579-sonli qarorining 3-bob 29-bandiga muvofiq va ShNK 1.03.06-13 ga asosan «Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaharsozlik hujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (dastlabki ma'lumotlarni loyihalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarning ishonchiligi bo'yicha) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyiha qarorlari

bo'yicha) yuklatiladi.

7. Xulosalar.

7.1. "Toshkent shahri, Sergeli tumani, Yangi Bunyodobod MFY, Sergeli 6 mavzesi, 34 g-uy O'z yer uchastkasida, yuridik xujjatiga ega qismida, «Yer osti avtoturargohi, savdo-maishiy xizmat ko'rsatish bo'lgan ko'p kvartirali turar joy» binolari qurish" ishchi loyihasi ekspertiza tekshiruv natijalarini hisobga olgan holda ko'rib chiqib, kelishishga tavsiya etiladi.

Bosh ekspert: Avazov Xashimjon To'rabayevich.

Ishtirokchi ekspertlar: Bekbayev Sanjar Qodirjon O'g'li, Suleymanov Esvet Devletovich, Shakurov Rafael Faxrazeyevich